



SENTIMENTALLIK INSON RUHIYATI VA UNING BADIY ADABIYOTDAGI IFODASI

Shukurova Sabohat Odilovna.

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti (IPU)

Rus tili va adabiyoti kafedrasи.

Email: shukurovasabohat6033@gmail.com

Annotatsiya Mazkur ilmiy maqolada badiiy adabiyotda o‘z joniga qasd qilish fojiasining psixologik motivlari chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Xususan, sentimentalizm estetikasida shakllangan “Verter tipi” qahramonlari va ularning ruhiy holatlari, ichki kechinmalari hamda fojiali yakunga olib keluvchi psixologik omillar atroflicha o‘rganiladi.

Maqolada Yo. V. Gyotening “*Yosh Verterning iztiroblari*” romani asosida sentimental qahramon fenomeni, uning jamiyat bilan o‘zaro munosabatlari, muhabbat va umidsizlik o‘rtasidagi ichki ziddiyatlari, individualizm va ekzistensial inqiroz bilan bog‘liq psixologik jarayonlar tahlil etiladi. Shu bilan birga, Verter sindromi hodisasi va uning adabiy-estetik ta’siri ilmiy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqilib, badiiy obrazlarning inson psixologiyasiga ta’sir qilish mexanizmlari xronologik, komparativ va tahliliy metodlar asosida yoritiladi.

Mazkur tadqiqot badiiy adabiyotda inson ruhiyati va ichki kechinmalarining aks ettirilishiga oid nazariy yondashuvlarni keng qamrovda tahlil qilib, o‘z joniga qasd qilish motivining badiiy talqini va uning jamiyatga ta’sirini har tomonlama ochib berishga qaratilgan. Shu bois maqola nafaqat adabiyotshunoslik va psixologiya, balki sotsiologiya va falsafa sohalari uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: O‘z joniga qasd qilish fenomeni, sentimentalizm estetikasining xususiyatlari, Verter sindromi va uning adabiy talqini, fojiaviy xarakter tahlili, psixologik motivlar va ruhiy iztirob dinamikasi, badiiy obrazlarning ichki kechinmalari, individualizm va ijtimoiy begonalashuv, ekzistensial inqiroz va uning falsafiy asoslari, adabiyot va inson psixologiyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, romantik individualizm va tragik dunyoqarash.

Annotation This scholarly paper presents an in-depth analysis of the psychological motives underlying the tragedy of suicide in literary works. In particular, the study thoroughly examines the “Verter type” characters—shaped by the aesthetics of sentimentalism—their psychological states, inner experiences, and the factors that lead to a tragic conclusion.

Based on J. V. Goethe’s novel *The Sorrows of Young Werther*, the article analyzes the phenomenon of the sentimental hero, his interactions with society, the internal conflicts between

love and despair, and the psychological processes related to individualism and existential crisis. In addition, the Werther syndrome phenomenon and its literary-aesthetic impact are explored from a scholarly perspective, with a focus on the mechanisms by which literary images affect human psychology, employing chronological, comparative, and analytical methods.

This study provides a comprehensive analysis of theoretical approaches to the representation of human psyche and inner experiences in literature, aiming to elucidate the artistic interpretation of the suicide motive and its impact on society. Consequently, the article is of significant relevance not only to literary studies and psychology but also to sociology and philosophy.

Keywords: Suicide phenomenon, characteristics of the aesthetics of sentimentalism, Werther syndrome and its literary interpretation, tragic character analysis, psychological motives and dynamics of mental suffering, inner experiences of literary images, individualism and social alienation, existential crisis and its philosophical foundations, interrelationship between literature and human psychology, romantic individualism and tragic worldview.

Аннотация В данной научной статье проводится глубокий анализ психологических мотивов трагедии самоубийства в художественной литературе. В частности, детально изучаются «вертеровский» тип персонажей, сформированных эстетикой сентиментализма, их душевное состояние, внутренние переживания, а также психологические факторы, приводящие к трагическому финалу.

На основе романа И. В. Гёте «Страдания юного Вертера» статья анализирует феномен сентиментального героя, его взаимоотношения с обществом, внутренние противоречия между любовью и безнадежностью, а также психологические процессы, связанные с индивидуализмом и экзистенциальным кризисом. Кроме того, рассматривается феномен вертеровского синдрома и его литературно-эстетическое воздействие с научной точки зрения, при этом уделяется внимание механизмам влияния художественных образов на психологию человека с использованием хронологических, сравнительных и аналитических методов.

Данное исследование представляет собой всесторонний анализ теоретических подходов к отражению психики и внутренних переживаний человека в литературе, направленный на комплексное раскрытие художественной интерпретации мотива самоубийства и его влияния на общество. Таким образом, статья имеет актуальное значение не только для литературоведения и психологии, но и для социологии и философии.

Ключевые слова: феномен самоубийства, особенности эстетики сентиментализма, вертеровский синдром и его литературная интерпретация, анализ трагического характера, психологические мотивы и динамика душевных страданий, внутренние переживания художественных образов, индивидуализм и социальная отчужденность, экзистенциальный кризис и его философские основы, взаимосвязь

литературы и психологии человека, романтический индивидуализм и трагическое мировоззрение.

Kirish

Badiiy adabiyot inson tafakkuri, ruhiy holati va jamiyatdagi murakkab jarayonlarni aks ettiruvchi eng muhim san’at turlaridan biri hisoblanadi. Adabiyot nafaqat estetik zavq bag‘ishlovchi san’at sohasi, balki inson tafakkurini, his-tuyg‘ularini va ijtimoiy muammolarni chuqur o‘rganish imkonini beruvchi falsafiy va psixologik hodisa sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, o‘z joniga qasd qilish fenomeni adabiyotda o‘ziga xos murakkab va ko‘p qirrali mavzu bo‘lib, uning badiiy talqini inson ruhiyatini, jamiyat bilan bo‘lgan ichki ziddiyatlarni va hayotning ma’nosizligi hissini anglashga xizmat qiladi.

O‘z joniga qasd qilish muammosi tarixiy, falsafiy, psixologik va ijtimoiy jihatdan ko‘rib chiqilishi mumkin bo‘lsada, uning badiiy adabiyotda aks etishi yanada chuqurroq tahlil qilishni talab qiladi. Chunki badiiy asarlar inson qalbining eng nozik va murakkab jihatlarini ifodalash vositasi sifatida bu masalani hayotiy tajribalar va hissiyotlar orqali ochib beradi. Adabiyotshunoslikda o‘z joniga qasd qilish motivlari turli davrlarda turlicha talqin qilingan bo‘lib, ayniqsa, XVIII asr sentimentalizmi doirasida bu mavzu alohida dolzarb ahamiyat kasb etgan.

Sentimentalizm – bu XVIII asrning ikkinchi yarmida Yevropa adabiyotida shakllangan, insonning ichki kechinmalariga, tuyg‘ulariga va axloqiy izlanishlariga asoslangan adabiy oqimdir. Ushbu yo‘nalishda yaratilgan asarlar qahramonlarning ichki dunyosi, emotsiyal to‘lqinlanishlari va ruhiy iztiroblari orqali insoniyatni anglashga intiladi. Sentimental adabiyotning yetakchi vakillari qatoriga J. J. Russo, L. Stern va, albatta, Yo. V. Gyote kabi ijodkorlar kiradi. Aynan sentimentalizmdagi badiiy qahramonlar – o‘ziga xos individuallar bo‘lib, ular hayot va jamiyat bilan ziddiyatga kirishgan, ichki dunyosida hal qilinishi qiyin bo‘lgan muammolarni his qilgan va ko‘pincha, ushbu qarama-qarshiliklarni hal qilishning eng oxirgi chorasi sifatida o‘z joniga qasd qilish yo‘lini tanlagan obrazlardir.

Yo. V. Gyotening "*Yosh Verterning iztiroblari*" romani sentimentalizm estetikasining yorqin namunasi sifatida nafaqat XVIII asr adabiyotining, balki butun jahon adabiyotining eng ta’sirchan va bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan asarlaridan biri sanaladi. Mazkur roman bosh qahramon Verterning ichki iztiroblari, jamiyat bilan moslasha olmasligi, ruhiy tushkunlik va sevgisining javobsizligi natijasida o‘z joniga qasd qilishiga asoslangan. Roman chop etilgach, uning g‘oyasi va qahramoning taqdiri butun Yevropada keng muhokamalarga sabab bo‘lgan, hatto o‘z joniga qasd qilish holatlari ortib ketganligi sababli, ayrim mamlakatlarda ushbu asarni o‘qish taqiqlangan edi.

Ushbu maqola aynan "*Verter tipi*" deb nomlanadigan badiiy qahramon fenomenining tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda sentimental qahramonlarning ruhiy kechinmalarini, jamiyat bilan bog‘liq ziddiyatlari, fojiaviy xarakterlari va ularni o‘z joniga qasd qilishga olib keluvchi psixologik omillar ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Badiiy adabiyotda qahramonning o‘z joniga qasd qilishi shunchaki dramatik syujet elementi emas, balki inson ongi va ruhiy dunyosining chuqur falsafiy-psixologik izlanishidir. Bunday qahramonlar orqali yozuvchilar inson tabiatidagi umidsizlik, yolg‘izlik va jamiyatdan begonalashish jarayonlarini tasvirlashga harakat qiladilar. Ayniqsa, sentimental adabiyotda bu jarayon emotsiyal ta’sirchanlik bilan yoritiladi. Verterning fofaviy taqdidi esa real hayotda ham muayyan yoshlar orasida kuchli rezonans uyg‘otgan bo‘lib, ularning shaxsiy hayotidagi iztiroblar va tushkunlik hissiyotlariga mos kelgan. Shu sababli, ushbu asarning psixologik va adabiy tahlili faqatgina Gyotening ijodiga doir emas, balki butun insoniyat tafakkuridagi ruhiy holatlarning badiiy in’ikosini o‘rganish nuqtayi nazaridan ham ahamiyatlidir.

Shuningdek, maqolada Verter sindromi fenomeni alohida e’tiborga olinadi. Verter sindromi – bu badiiy adabiyotning inson psixologiyasiga bevosita ta’sirini namoyon etuvchi o‘ziga xos hodisa bo‘lib, bu hodisa adabiy obrazlar real hayotdagi xatti-harakatlarga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini chuqur anglash imkonini beradi. Aynan shu fenomen doirasida sentimental qahramonlarning ichki dunyosi va ularning fojiali qismati badiiy-estetik va psixologik aspektida o‘rganiladi.

Maqolada klassik va zamonaviy tadqiqotlar, adabiy tanqidiy qarashlar, falsafiy va psixologik yondashuvlar asosida "Verter tipi" qahramonlarining shakllanishi va badiiy adabiyotdagi aks etish dinamikasi batafsil ochib beriladi. Natijada, ushbu maqola sentimentalizm estetikasini, uning inson ruhiyati bilan bog‘liqligini va badiiy qahramonlarning fofaviy qismatini har tomonlama tahlil qilishga xizmat qiladi.

I. "VERTER TIPI"NING SHAKLLANISHI VA UNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

1.1. Sentimentalizm va inson ruhiyati

Sentimentalizm XVIII asr adabiyotining yetakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, insonning ichki kechinmalarini, chuqur his-tuyg‘ularni, axloqiy izlanishlari va ruhiy iztiroblariga asoslangan badiiy-estetik oqim sifatida shakllangan. Ushbu yo‘nalish vakillari inson qalbining nozik jihatlarini, hayot va jamiyat o‘rtasidagi ziddiyatlarni tasvirlashga alohida e’tibor qaratganlar. Ayniqsa, muhabbat, do‘stlik, sadoqat, insoniy qadr-qimmat kabi mavzular sentimental adabiyotning markaziy g‘oyalari sifatida maydonga chiqadi.

Sentimental qahramonlar odatda dunyoni hissiy idrok etadigan, hayotning murakkabligi va insoniy munosabatlarning murakkab tabiatini oldida ichki ruhiy ziddiyatlarni boshdan kechiradigan individuallar sifatida gavdalanadi. Ularning tafakkurida oqilona fikrlashdan ko‘ra his-tuyg‘ularning ustuvorligi kuzatiladi. Bunday qahramonlar o‘z shaxsiy kechinmalarini va idealistik orzularini bilan real hayot o‘rtasidagi tafovutni chuqur his etib, ko‘pincha jamiyatga moslasha olmaydi.

Gyotening "*Yosh Verterning iztiroblari*" romani sentimentalizm estetikasining eng yorqin namunasidir. Ushbu roman markazida turgan bosh qahramon Verter inson tabiatining murakkab jihatlarini o‘zida mujassam etgan. U jamiyat bilan ziddiyatga kirishgan, ichki

iztiroblar, umidsizlik va rad etilish oqibatida o‘z joniga qasd qilishga qaror qilgan fojiaviy xarakterdir.

Verterning o‘z joniga qasd qilishiga olib keluvchi asosiy psixologik omillar.

Verterning fojiaviy qismati bir qator ichki va tashqi omillarga bog‘liq bo‘lib, quyida ularning eng asosiylari tahlil qilinadi:

Muhabbat va rad etilish.

Verterning qismati muhabbat va iztirobga bog‘liq tarzda shakllanadi. U Lottega bo‘lgan muhabbatini butun borlig‘i bilan his etadi va uni hayotining asosiy ma’nosini deb biladi. Biroq Lotte unga javob qaytara olmaydi, chunki u boshqa bir kishiga – Albertga turushga chiqishni tanlaydi. Ushbu rad etilish Verterning ruhiyatida chuqur jarohat qoldirib, uni yanada iztirobli holatga soladi. Gyotening tasviriga ko‘ra, Verter muhabbatni badiiy-estetik ideallashtiradi, real hayotdagi murakkablik va insoniy cheklovlarini inobatga ololmaydi.

Jamiyat bilan moslasha olmaslik.

Verter o‘zining ichki dunyosi, idealistik orzulari va sezgir tabiatini bilan jamiyatning qoidalari va normalari o‘rtasida murosaga kela olmaydi. U hayotning o‘zi istaganidek bo‘lishini xohlaydi, biroq haqiqatda hayot murakkab va pragmatik ekanligini tushunmaydi. Verter aristokratik doiralar va davlat idoralari bilan bog‘liq muhitda o‘zini ortiqcha his qiladi, biroq o‘z orzulari bilan oddiy xalq orasida ham baxt topa olmaydi. Bu esa uni jamiyatdan tobora yakkalashishiga sabab bo‘ladi.

Estetik ideal va real hayot o‘rtasidagi tafovut.

Verter hayotni badiiy estetik idrok etadi va hayotdagi voqelikni romantik tasavvur qiladi. Biroq, haqiqat uning idealistik qarashlariga mos kelmaydi. Uning ichki dunyosi real hayotdan butunlay uzilgan bo‘lib, real hayotdagi muammolarni idealistik tasavvurlari asosida hal qilishga urinadi. Bu esa uning tushkunlikka tushishiga va o‘zini jamiyatdan chetlashtirishiga olib keladi.

Verterning fojiaviy qismati shaxsiy ruhiy holatlari, muhabbat iztiroblari va jamiyat tomonidan tushunilmasligi natijasida shakllanadi. Bunday qahramonlarning prototiplari faqat Gyote ijodida emas, balki keyingi adabiy davrlarda ham uchraydi.

1.2. Verter sindromi va uning badiiy ta’siri

“Yosh Verterning iztiroblari” romani chop etilganidan so‘ng, uning badiiy obrazlari va ta’siri faqat adabiy muhit bilan cheklanib qolmadi. Aksincha, roman butun Yevropa bo‘ylab katta shov-shuvga sabab bo‘ldi. Kitob yosh o‘quvchilar orasida o‘z joniga qasd qilish holatlarining ortishiga sabab bo‘lgani sababli, ayrim mamlakatlarda taqiqlangan edi. Ushbu hodisa tarixiy va psixologik tadqiqotlarda *“Verter sindromi”* nomi bilan atalgan.

Verter sindromi quyidagi asosiy omillarga bog‘liq:

Ruhiy tushkunlik va jamiyatdan ajralish.

Sentimental qahramonlar, ayniqsa Verter tipidagi obrazlar, jamiyat tomonidan tushunilmagan, ichki iztirobda yashaydigan individuallar bo‘lib, ular hayotning haqiqatlari bilan yuzlashganda ruhiy tushkunlikka tushadilar. Bu tushkunlik ularni tobora jamiyatdan ajratib, o‘zlarini yolg‘iz his qilishlariga olib keladi.

Verter tipidagi qahramonlar ko‘pincha jamiyat tomonidan tushunilmagan, ichki iztirob bilan yashaydigan individuallar bo‘lib, ular hayot haqiqatlari bilan to‘qnashganda ruhiy tushkunlik girdobiga tushadilar. Bu tushkunlik ularning jamiyatdan tobora ajralib borishiga va o‘zlarini yolg‘iz his qilishlariga olib keladi. Verter o‘zining jamiyatga moslasha olmasligi, ayniqsa, aristokratik doiralar bilan bog‘liq noqulay tajribalari haqida shunday yozadi:

*"Men bu yerda hech kim bilan ochiqchasiga suhbat qura olmayman. Ularning barchasi qoidalar va an'analar bilan yashaydi, mening qalbim esa erkinlikka intiladi."*²⁶⁶

U o‘z atrofidagi odamlarning yuzaki munosabatlaridan charchaydi va tobora ichki dunyosiga berilib boradi. Uning hayotiy qarashlari va idealistik tasavvurlari real jamiyat bilan to‘qnashganida, ruhiy iztiroblar kuchayadi. Verterning hayotga bo‘lgan ishonchi susayib, insonlar bilan muloqot qilishdan tobora chekinadi. Shu sababli, u yolg‘izlikka tobora chuqurroq botib boradi va jamiyatdan ajralish ruhiy tushkunlikni yanada chuqurlashtiradi.

Uning jamiyatdan begonalashishi va tushkunlikka tushishi o‘z joniga qasd qilish qarorining eng asosiy sabablaridan biri bo‘lib xizmat qiladi. Uning oxirgi maktublaridan birida quyidagicha satrlarni o‘qish mumkin:

*"Hayot menga ortiq hech qanday zavq bag‘ishlamaydi. Atrofimdagи odamlar menga notanish bo‘lib qolgan, ularning so‘zлari qalbimga begona. Endi men faqat yolg‘izlik ichra taskin topaman."*²⁶⁷

Bu so‘zlar Verterning jamiyatdan uzilganligini va ichki iztiroblar bilan yakka holda kurashayotganini yaqqol namoyon qiladi.

Psixologik noziklik va emosional eksplozivlik.

Verter tipidagi qahramonlar odatda hissiyotga juda berilgan bo‘lib, ularning ichki kechinmalari haddan tashqari keskin bo‘ladi. Bu esa ularning harakatlariga to‘sinqilik qiladi va oqibatda radikal qarorlar qabul qilishlariga sabab bo‘ladi. Masalan, Verter muhabbatdagi rad etilishni qabul qila olmaydi va hayotining ma’nosiz ekanligini his qilib, o‘z joniga qasd qiladi.

Verter tipidagi qahramonlar hissiyotga haddan tashqari berilgan bo‘lib, ularning ichki kechinmalari nihoyatda kuchli bo‘ladi. Bu esa ularning xatti-harakatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va ko‘pincha radikal qarorlar qabul qilishlariga sabab bo‘ladi.

Verterning muhabbatni uning hayotining markaziga aylanadi, u muhabbatni hayotining asosiy ma’nosini deb biladi. Lotte bilan bo‘lgan har bir uchrashuv uning ruhiyatiga ta’sir qiladi, u muhabbatidan kuch oladi, biroq shu bilan birga, rad etilish uning iztiroblarini yanada chuqurlashtiradi. U o‘z his-tuyg‘ularining asiriga aylanadi va vaziyatni real baholay olmaydi. Verter o‘zining rad etilgan muhabbatni haqida shunday yozadi:

*"U meni yaxshi ko‘rmaydi. Men uning hayotida tasodifyi bir insonman, lekin men uni butun borlig‘im bilan sevaman! Bu dardga qanday chiday olaman?"*²⁶⁸

²⁶⁶ Gyote, Yosh Verterning iztiroblari, tarj. O. Sharafiddinov, Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983, 57-bet

²⁶⁷ Gyote, Yosh Verterning iztiroblari, 1983, 124-bet

²⁶⁸ Gyote, Yosh Verterning iztiroblari, 1983, 89-bet

Uning ichki kechinmalari haddan tashqari keskin bo‘lib, o‘zini tuta bilmasligi hayotiy qarorlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

“Men uning yonida bo‘lishni istayman, lekin bu menga ruxsat etilmagan. U meni o‘ziga yaqin deb biladi, lekin men hech qachon unga yetisha olmayman. Bu fikr meni ich-ichimdan yemirmoqda.”²⁶⁹

Uning hayotga bo‘lgan ishonchi tobora susayib boradi va bu ruhiy inqiroz eng radikal qarorni qabul qilishiga sabab bo‘ladi.

Badiiy adabiyotning psixologik ta’siri.

Ba’zan yosh o‘quvchilar badiiy asarlardagi qahramonlarning fojiaviy taqdirini o‘z hayotlariga tatbiq etishga moyil bo‘ladilar. *“Yosh Verterning iztiroblari”* romani real hayotdagi yosh o‘quvchilar orasida psixologik ta’sir ko‘rsatib, ularning ruhiy holatlariga bevosita ta’sir qilgan. Bu esa *“Verter sindromi”* nomi bilan ataladigan psixologik fenomenning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Verter tipidagi qahramonlar adabiyotda inson ruhiy iztiroblarining eng yorqin timsollaridan biri hisoblanadi. Ular orqali sentimental adabiyot inson qalbining nozik jihatlarini, muhabbatning murakkab tabiatini va hayotga bo‘lgan idealistik qarashlarning real haqiqat bilan to‘qnashganidagi oqibatlarini ko‘rsatadi. *“Yosh Verterning iztiroblari”* romani esa badiiy adabiyotning inson psixologiyasiga qanday ta’sir o‘tkazishi mumkinligini ko‘rsatgan eng yorqin misollardan biridir.

Badiiy adabiyot inson psixologiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. *“Yosh Verterning iztiroblari”* romani nashr etilgach, yosh o‘quvchilar orasida o‘z joniga qasd qilish holatlarining ortgani kuzatilgan. Ushbu hodisa *“Verter sindromi”* deb nomlanib, badiiy asarlarning inson ruhiyatiga qanday ta’sir qilishini o‘rganish nuqtayi nazaridan muhim ilmiy fenomen sifatida qaralgan.

Verterning o‘z joniga qasd qilish sahnasini tasvirlash usuli juda ta’sirchan bo‘lib, o‘quvchini chuqur haya jonga soladi:

“Men endi yashashga majbur emasman. Bu dunyoda men uchun joy yo‘q, yuragim esa bu og‘riqqa chiday olmaydi. Oxirgi maktubimni yozarkanman, shuni anglayapmanki, men uchun yagona najot yo‘li – bu hayotdan ketishdir.”²⁷⁰

Verter sindromi – bu badiiy adabiyotning inson hissiyotlari va xatti-harakatlariga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini o‘rganish uchun muhim ilmiy fenomen hisoblanadi. Ushbu sindrom adabiyotning shaxsiy ong va jamiyatdagi ruhiy muhit bilan o‘zaro bog‘liqligini ochib beradigan o‘ziga xos hodisadir.

Verter tipidagi qahramonlar inson ruhiyati va ichki iztiroblarining badiiy ifodasi bo‘lib, ularning hikoyalari ruhiy tushkunlik, emosional eksplozivlik va badiiy adabiyotning psixologik ta’siri kabi muhim omillar bilan bog‘liq. Gyotening *“Yosh Verterning iztiroblari”* romani bu jihatlarni yorqin yoritgan bo‘lib, uning o‘quvchilarga ta’siri nafaqat adabiy-estetik, balki

²⁶⁹ Gyote, *Yosh Verterning iztiroblari*, 1983, 102-bet

²⁷⁰ Gyote, *Yosh Verterning iztiroblari*, 1983, 145-bet

psixologik va ijtimoiy nuqtayi nazardan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa badiiy adabiyotning inson ongi va hissiyotlariga ta’sir qilish qudratini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

II. "VERTER TIPI"NING ADABIYOTDAGI DAVOMCHILARI

Yo. V. Gyotening "*Yosh Verterning iztiroblari*" romani nafaqat XVIII asr nemis adabiyotining, balki butun Yevropa adabiy jarayonining rivojlanishida muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Ushbu asar sentimentalizm estetikasining eng yorqin namunasi bo‘lishi bilan birga, keyingi adabiy oqimlarga, xususan, romantizm, ekzistensializm va modernizmga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. "Verter tipi" qahramonlari inson ruhiy iztiroblarining ifodasi sifatida keyingi davr adabiyotida ham yetakchi motivlardan biri sifatida namoyon bo‘ldi.

Verter tipidagi qahramonlar asosan ichki dunyosi bilan kurashuvchi, hayotning murakkabligiga dosh berolmaydigan, jamiyat bilan moslasha olmaydigan individuallar sifatida tasvirlangan. Ular odatda o‘z hayotining ma’nosizligini anglab, fojiaviy yakunga olib keluvchi ruhiy tushkunlikka tushadilar. Bunday qahramonlar ko‘pgina adabiy asarlarda turli shakllarda namoyon bo‘lsa-da, ularning umumiyligi psixologik xususiyatlari o‘zgarishsiz qoladi.

Gyotening Verteri keyingi asrlarda ko‘plab yozuvchilar tomonidan takror yaratilgan bo‘lib, ularning har biri turli falsafiy, ijtimoiy va psixologik yondashuvlar asosida badiiy qiyofa kasb etgan. Quyida "*Verter tipi*" qahramonlarining ba’zi eng muhim adabiy davomchilari va ularning xususiyatlari tahlil qilinadi.

2.1. "Verter tipi"ning XIX asr adabiyotidagi in’ikoslari

F. M. Dostoyevskiy – "*Yosh yigitning e’tiroflari*"

Dostoyevskiyning qahramonlari, xususan, "*Yosh yigitning e’tiroflari*" asaridagi bosh qahramon, Gyotening Verteri bilan chuqur ruhiy o‘xshashliklarga ega. Ushbu asarda o‘z joniga qasd qilish fikri bilan yashovchi qahramonning ichki kurashi, hayotga bo‘lgan ishonchhsizligi, o‘zini jamiyatdan ajratib qo‘yishi va ichki qarama-qarshiliklari tasvirlanadi. Bu qahramon ham o‘z his-tuyg‘ularining asiriga aylanib, hayotning haqiqatlarini qabul qila olmaydi.

Dostoyevskiy "*Verter tipi*" qahramonini yanada murakkabroq psixologik kontekstda talqin etgan bo‘lib, uning qahramonlari nafaqat muhabbat yoki rad etilish natijasida iztirob chekadi, balki jamiyat va inson o‘rtasidagi ziddiyatlar, irodasizlik, axloqiy ikkilanishlar natijasida ham ruhiy tushkunlikka tushadi.

M. Y. Lermontov – "*Zamonaviy qahramon*"

Lermontovning "*Zamonaviy qahramon*" asaridagi Pechorin obrazi ham "*Verter tipi*" qahramonlarining badiiy evolyutsiyasiga misol bo‘la oladi. Biroq Pechorin Verterga nisbatan kuchliroq xarakterga ega bo‘lsa-da, uning ham ichki bo‘shliqlari va hayotga nisbatan befarqligi oxir-oqibat o‘z-o‘zini yo‘q qilishga olib keladi.

Pechorinning dunyodan begonalashuvi va atrof-muhit bilan murosasizligi, hayotda hech qanday quvonch yoki maqsad topa olmasligi uni "*Verter tipi*" qahramonlari bilan bog‘laydi. Ammo Pechorin faqatgina muhabbat emas, balki ijtimoiy munosabatlar, taqdir va inson tabiatining murakkabligi bilan bog‘liq ichki iztiroblar girdobida qolgan.

2.2. "Verter tipi"ning XX asr adabiyotidagi rivoji A. Kamyu – "Begona" XX asrda ekzistensializm falsafasi va adabiyotining rivojlanishi bilan "*Verter tipi*" qahramonlari yangi ko‘rinishda paydo bo‘ldi. Kamyuning "*Begona*" romanidagi Merso obrazi bunga yorqin misoldir.

Merso ham Gyotening Verteridan farqli ravishda sovuqqonlik va hissiy befarqliq bilan ajralib turadi. Biroq, uning jamiyat tomonidan tushunilmasligi, yolg‘izligi va hayotning ma’nosizligini anglash natijasida o‘zini begona his qilishi uni "*Verter tipi*" qahramonlari bilan bog‘laydi. Mersoning fojiaviy qismati uning hissiy izardoblar emas, balki jamiyatning unga bo‘lgan munosabati va uning hayotdagi absurd vaziyatlar oldida ojizligi bilan bog‘liq.

Xulosa

"*Verter tipi*" badiiy adabiyotda inson ruhiyatining eng chuqur va murakkab qirralarini o‘rganishga xizmat qiluvchi muhim fenomenlardan biri hisoblanadi. Ushbu qahramonlar inson tafakkurida hayot va o‘lim, muhabbat va umidsizlik, ijtimoiy moslashuv va begonalashuv, individualizm va ekzistensial tushkunlik o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritadi. Gyotening Verteri orqali boshlangan ushbu qahramon tipi keyinchalik Lermontov, Dostoyevskiy, Kamyu kabi ijodkorlarning asarlarida davom etib, turli falsafiy va adabiy oqimlar nuqtayi nazaridan yangicha talqin qilindi.

Bunday qahramonlarning fojiaviy yakuni, ko‘pincha, ularning jamiyat tomonidan tushunilmasligi, o‘z-o‘zini anglash jarayonidagi ziddiyatlar, ichki ruhiy inqirozlar va real hayotning idealistik tasavvurlarga mos kelmasligi bilan bog‘liq. *Verter tipi* qahramonlari o‘zining ruhiy inqirozi va ichki murakkab dunyosi bilan adabiy jarayonning muhim qismiga aylangan bo‘lib, ular orqali inson tafakkuridagi eng nozik va sirli jihatlar tadqiq qilinadi.

Verter tipi qahramonlari adabiyotning insoniy tuyg‘ularni, xususan, ichki izardob va hayotning absurdligi bilan bog‘liq ziddiyatlarni aks ettirishdagi eng yorqin vositalardan biridir. Ushbu qahramonlarning har biri o‘z zamonasi ruhiyatining muayyan xususiyatlarini aks ettirgan holda, badiiy-estetik anglash jarayonining tarkibiy qismi sifatida shakllangan. Gyotening Verteri XVIII asrning sentimentalistik izardoblarini ifodalagan bo‘lsa, Lermontovning Pechorini romantik individualizmning ichki inqirozini aks ettirdi. Dostoyevskiy va Kamyu qahramonlari esa inson hayotining ma’naviy va falsafiy absurdligini ochib berishga xizmat qildi.

Bugungi kunda ham *Verter tipi* qahramonlarining badiiy adabiyotdagi aks-sadosi sezilarli darajada saqlanib qolgan. Zamonaviy adabiyotda ham bu qahramonlarning izlari kuzatiladi, biroq ular yangi shakl va ifoda uslublariga ega bo‘lib, ko‘proq texnogen dunyo va globalizatsiya natijasida yuzaga kelgan begonalashuv bilan bog‘liq shaklda namoyon bo‘layotgani kuzatiladi. Shu bois, ushbu fenomenni har tomonlama o‘rganish, inson ruhiyatidagi murakkab jarayonlarni badiiy-estetik va ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq qilish nafaqat adabiyotshunoslik, balki psixologiya, falsafa va sotsiologiya fanlari uchun ham dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

Verter tipi qahramonlari inson ruhiyatining o‘z-o‘zini anglash bilan bog‘liq murakkab jarayonlarini yoritishda, his-tuyg‘ular va tafakkur ziddiyatlarini tasvirlashda eng samarali vositalardan biri bo‘lib qolmoqda. Insoniyatning doimiy falsafiy savollari – hayot va o‘lim, baxt

va iztirob, jamiyat va individuallik muammolari bugungi davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligi sababli, *Verter tipi* qahramonlari adabiyotda yangi shakllarda namoyon bo‘lishda davom etmoqda.

Shunday ekan, *Verter tipi* faqat badiiy an’ana sifatida emas, balki inson ruhiyatining ma’naviy va psixologik kechinmalarini tadqiq qilish uchun ham muhim fenomen hisoblanadi. Ushbu qahramonlar hayotga nisbatan chuqur falsafiy mulohazalar qilishga undaydi va inson ongining murakkab tabiatini, his-tuyg‘ular va ichki ziddiyatlarning adabiy aksini tadqiq etish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, *Verter tipi* qahramonlarining adabiyotdagi o‘rnii faqat tarixiy fenomen sifatida emas, balki inson tafakkurining doimiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi falsafiy-estetik konsepsiya sifatida ham o‘rganilishi lozim deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Goethe, J. W. *Die Leiden des jungen Werthers*. Leipzig: Weygand, 1774.
2. Rousseau, J. J. *Les Confessions*. Paris: Garnier-Flammarion, 1762.
3. Dostoevsky, F. M. *Записки из подполья (Notes from Underground)*. Saint Petersburg: M. Stasyulevich Publishing, 1864.
4. Lermontov, M. Y. *Герой нашего времени (A Hero of Our Time)*. Moscow: Glavnaya Redaktsiya, 1840.
5. Camus, A. *L’Étranger (The Stranger)*. Paris: Gallimard, 1942.
6. Baumeister, R. F. *Suicide as Escape from Self. Psychological Review*, Vol. 97, No. 1, 1990, pp. 90-113.